

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK YONDASHUVLARNING SAMARADORLIGI

Sobirova Muqaddasxon Rustamjon qizi

Marg'ilon shahar qurilish va kommunal xo'jaligi texnikumi o'qituvchisi

Annotatsiya Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida nazariy manbalar tahlili, anketa va so'rovnomalar hamda tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Natijalarda interaktiv metodlar va raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada rivojlantirishi ko'rsatib berildi. Muhokamada innovatsion yondashuvlarning amaliy ahamiyati va ularning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetensiya, innovatsion pedagogika, boshlang'ich ta'lim, interaktiv metodlar, raqamli ta'lim.

EFFECTIVENESS OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL APPROACHES IN DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Abstract This article examines the effectiveness of innovative pedagogical approaches in developing professional competence among prospective primary school teachers. The research employed theoretical analysis, surveys, and experimental lessons. The findings indicate that the use of interactive methods and digital learning tools significantly enhances students' independent thinking, creativity, and professional preparedness. The discussion highlights the practical importance of innovative approaches and their role in improving the quality of education.

Keywords: professional competence, innovative pedagogy, primary education, interactive methods, digital learning.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация В данной статье анализируется эффективность инновационных педагогических подходов в развитии профессиональной компетентности будущих учителей начальных классов. В исследовании применялись теоретический анализ, анкетирование, опросы и экспериментальные занятия. Результаты показали, что использование интерактивных методов и цифровых образовательных средств способствует развитию у студентов самостоятельного мышления, творческого подхода и профессиональной подготовки. В разделе «Обсуждение» обосновано

практическое значение инновационных подходов и их роль в повышении качества образования.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, инновационная педагогика, начальное образование, интерактивные методы, цифровое обучение.

KIRISH (INTRODUCTION)

Hozirgi globallashuv jarayonida ta'lim tizimidan kutilayotgan asosiy natija jamiyat ehtiyojlariga mos, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mustaqil fikrlaydigan va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashdir. Bu jarayonda, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida faoliyat yuritadigan pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolaning shaxs sifatida shakllanishi, bilim olishga bo'lgan motivatsiyasi hamda ijtimoiy moslashuvchanligida asosiy o'rin tutadi.

Kasbiy kompetensiya keng qamrovli tushuncha bo'lib, nafaqat o'qituvchining nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini, balki uning kasbiy mahorati, pedagogik etikasini, kommunikativ qobiliyatini ham qamrab oladi. Demak, zamonaviy o'qituvchi o'z sohasida nafaqat bilimdon, balki innovatsion texnologiyalarni samarali qo'llay oladigan, axborot-kommunikatsiya vositalaridan erkin foydalanuvchi va o'quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantira oladigan shaxs bo'lishi zarur.

Bugungi kunda ta'lim jarayoniga turli xil innovatsion pedagogik yondashuvlarning joriy etilishi bu maqsadga erishishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Xususan, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, interaktiv metodlar, gamifikatsiya, blended learning (aralash ta'lim) kabi yondashuvlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyani shakllantirishda yuqori samaradorlik beradi. Shuningdek, raqamli ta'lim muhiti masofaviy ta'lim platformalari, onlayn test tizimlari, elektron kutubxonalar, ta'limiy mobil ilovalar ularning nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga katta imkoniyat yaratmoqda.

Shu nuqtai nazardan, innovatsion pedagogik yondashuvlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Tadqiqotning mazkur yo'nalishga qaratilishi bo'lajak pedagoglarning kelajakda o'z kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishi, jamiyatda malakali o'qituvchilar sifatida faoliyat yuritishlari uchun muhim ilmiy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda muhim o'rin tutadi. Mazkur sohada olib borilgan ilmiy ishlarda turli xil yondashuvlar mavjud bo'lib, ular asosan uchta yo'nalishda tadqiq etilgan.

Ko'plab olimlar kasbiy kompetensiyani o'qituvchining bilim, ko'nikma, malaka, kommunikativ qobiliyat va shaxsiy fazilatlarining birligidan iborat integrativ tushuncha sifatida talqin etadi. Bu kompetensiya nafaqat nazariy bilimlarni, balki pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi amaliy ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalar loyiha asosida o'qitish, case-study, muammoli ta'lim, klaster, gamifikatsiya, raqamli ta'lim muhitidan foydalanish kabi metodlar o'qituvchining kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi⁶⁶. Tadqiqotlarda ko'rsatib o'tilishicha, innovatsion yondashuvlar talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va muammoni hal etish ko'nikmalarini sezilarli darajada oshiradi.

Milliy ta'lim tizimida ham bosqichma-bosqich innovatsion metodlarni joriy etish bo'yicha qator ilmiy-amaliy ishlanmalar olib borilmoqda. Xorijiy tajriba esa shuni ko'rsatadiki, pedagoglarni tayyorlashda raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish va talabalarining kasbiy faoliyatini real sharoitlarda modellashtirish (simulyatsiya, virtual laboratoriyalar) yuqori samaradorlik beradi.

Tadqiqot davomida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlarning ta'sirchanligini aniqlash uchun bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Avvalo, kasbiy kompetensiya tushunchasi, pedagogik mahoratning o'ziga xos jihatlari hamda innovatsion ta'lim texnologiyalari bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, maqolalar va xorijiy tajribalar tahlil qilindi. Mazkur bosqichda innovatsion yondashuvlarning tasniflari, ularni o'quv jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlari hamda milliy va xorijiy tajriba o'rtasidagi umumiy va farqli tomonlar o'rganildi.

Pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan 3-4-kurs talabalari o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. Unda talabalarining innovatsion texnologiyalar haqidagi bilimlari, ularning dars jarayonidagi qo'llanishi va kasbiy kompetensiyani rivojlantirishdagi o'rni yuzasidan fikrlari o'rganildi. Umumiy hisobda 120 nafar talabadan to'plangan javoblar qayta ishlanib, statistik jihatdan tahlil qilindi.

O'quv mashg'ulotlari jarayonida case-study, loyiha usuli, klaster, aqliy hujum, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida darslar tashkil etildi. Tajriba-sinov ikki bosqichda amalga oshirildi. Dastlabki (diagnostik) bosqichda talabalarining bilim va ko'nikmalari aniqlab olindi. So'ngra, yakuniy (nazorat) bosqichda esa innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning natijalari qayd etildi. Baholash mezonlari asosida talabalarining bilim faolligi, ijodkorlik darajasi va kasbiy kompetensiya komponentlarining rivojlanishi tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida yig'ilgan ma'lumotlar miqdoriy va sifat ko'rinishida qayta ishlanib, umumlashtirildi. Diagramma va jadvallar asosida talabalarining dastlabki va yakuniy natijalari solishtirilib, innovatsion pedagogik yondashuvlarning samaradorligi isbotlab berildi.

Ushbu metodlarning birgalikda qo'llanishi tadqiqotning ilmiy asoslanganligi, ishonchliligi va amaliy ahamiyatini ta'minladi.

NATIJALAR (Results)

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda sezilarli samaradorlik beradi. Avvalo, interaktiv metodlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda talabalar faol ishtirok etib, o'z fikrlarini erkin ifoda eta olish, guruhda hamkorlikda ishlash va ijodkorlik bilan yondashish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

⁶⁶ Anderson, T., & Rivera, J. (2020). Digital pedagogy and student engagement in higher education. *Journal of Innovative Education*, 14(2), 112–124

Shuningdek, dars jarayonida loyiha usuli, case-study, klaster va aqliy hujum kabi metodlardan foydalanish talabalarning mustaqil fikrlash va muammoni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirdi. Ushbu yondashuvlar an'anaviy o'qitish usullariga qaraganda talabalarni ko'proq jalb etishi, ularning bilimlarni mustahkamlashda faol pozitsiya egallashiga yordam bergani kuzatildi.

Raqamli ta'lim vositalarining qo'llanishi ham ijobiy natijalar berdi. Onlayn testlar, multimediali taqdimotlar va turli interaktiv platformalardan foydalanish talabalar bilimlarini mustahkamlash, axborotni samarali qabul qilish va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qildi. Shu orqali talabalarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyati shakllanib, ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatida qo'llash imkoniyatlari kengaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari innovatsion pedagogik yondashuvlar talabalar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda an'anaviy usullarga qaraganda samaraliroq ekanini tasdiqlaydi.

MUHOKAMA (DISCUSSION)

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion pedagogik yondashuvlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. An'anaviy ta'lim jarayonida talabalar ko'pincha bilimni tayyor shaklda qabul qiluvchi passiv ishtirokchilarga aylansa, innovatsion metodlar ularni faol o'quv jarayonining markaziga olib chiqadi.

Avvalo, interaktiv va raqamli yondashuvlarning qo'llanilishi talabalar ishtirokini sezilarli darajada oshiradi. Guruhli topshiriqlar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, loyiha asosida ishlash va raqamli platformalarda hamkorlikda faoliyat olib borish talabalarni dars jarayoniga chuqur jalb etadi. Bu jarayon nafaqat bilimlarni mustahkamlash, balki ulardan samarali foydalanishni ham ta'minlaydi.

Ikkinchidan, innovatsion metodlar talabalarda mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, case-study yoki loyiha metodlari talabalardan muammoni turli nuqtayi nazardan ko'rib chiqishni, dalillar asosida xulosa chiqarishni va kreativ yechim topishni talab etadi. Natijada talabalar nazariy bilimni amaliyotda qo'llash, qaror qabul qilish va ijodkorlik bilan ishlash qobiliyatini rivojlantiradilar.

Uchinchidan, raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini zamonaviy talabalar darajasiga olib chiqadi. Multimediali taqdimotlar, onlayn test tizimlari, elektron kutubxonalar va ta'limiy ilovalar orqali o'quv jarayoni samaradorligi oshadi. Bundan tashqari, talabalarda axborot texnologiyalaridan foydalanish madaniyati shakllanib, ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion pedagogik yondashuvlar an'anaviy o'qitish usullariga qaraganda ko'proq afzalliklarga ega. Ular nafaqat kasbiy kompetensiyaning bilim va ko'nikma komponentlarini rivojlantiradi, balki shaxsiy sifatlarni mas'uliyat, hamkorlikda ishlash, kreativ yondashuv va kasbiy motivatsiyani ham kuchaytiradi. Shu bois, ushbu yondashuvlar boshlang'ich ta'limda pedagogik faoliyatga tayyorlanayotgan talabalar uchun dolzarb va zaruriy vosita sifatida qaralishi mumkin.

XULOSA (CONCLUSION)

Tadqiqot natijalari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, innovatsion pedagogik yondashuvlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Ular an'anaviy ta'lim usullaridan farqli ravishda talabalarni faollikka, ijodkorlikka va mustaqil fikrlashga undaydi, natijada kelajakdagi pedagogik faoliyatga yanada samarali tayyorgarlik ta'minlanadi.

Birinchidan, interaktiv metodlar (case-study, loyiha usuli, aqliy hujum va boshqalar) talabalar bilimlarini faqat nazariy darajada emas, balki amaliyotga tadbqiq etishda samarali vosita bo'lib xizmat qildi. Bu esa ularda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, turli yechimlarni topish va ularni pedagogik jarayonda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirdi.

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayonini zamonaviy axborot muhitiga moslashtirib, talabalar kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqdi. Multimediali taqdimotlar, onlayn platformalar, elektron resurslar va interaktiv dasturlar orqali o'quv jarayonining qiziqarliligi va samaradorligi oshdi.

Uchinchidan, innovatsion pedagogik yondashuvlar yosh mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bilan birga, ularni mehnat bozorida raqobatbardosh, zamonaviy ta'lim jarayoniga moslashuvchan o'qituvchilar sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Bu esa ta'lim tizimida sifatli kadrlar tayyorlash va boshlang'ich ta'lim sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tadqiqotdan olingan xulosalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion pedagogik yondashuvlarni keng joriy etish nafaqat talabalarning kasbiy tayyorgarligini, balki ta'lim tizimining umumiy rivojlanish darajasini ham oshirish imkonini beradi. Shu sababli, kelgusida pedagogik oliy ta'lim muassasalarida innovatsion metod va texnologiyalardan foydalanish doirasini kengaytirish, ularni metodik qo'llanmalar va o'quv dasturlarida tizimli tarzda tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR (REFERENCES);

1. Anderson, T., & Rivera, J. (2020). Digital pedagogy and student engagement in higher education. *Journal of Innovative Education*, 14(2), 112–124.
2. Darling-Hammond, L., & Bransford, J. (Eds.). (2007). *Preparing Teachers for a Changing World: What Teachers Should Learn and Be Able to Do*. Jossey-Bass.
3. Ergashev, O. (2021). Innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'qituvchi tayyorlash jarayonidagi o'rni. *O'zbekiston pedagogika jurnali*, 5(2), 87–94.
4. Karimova, D. (2023). Boshlang'ich ta'limda kasbiy kompetensiya shakllantirish metodlari. *Pedagogik izlanishlar jurnali*, 7(1), 66–72.
5. Loughran, J. (2019). *Pedagogy and practice: Understanding teaching and learning*. Routledge.
6. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge. *Teachers College Record*, 108(6), 1017–1054.
7. OECD. (2019). *OECD Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Compass 2030*. OECD Publishing.

8. Shadiev, R., & Yang, M. (2021). Innovative approaches to developing teacher competencies. *Education and Information Technologies*, 26(5), 5431–5450.
9. Voogt, J., & Roblin, N. P. (2012). A comparative analysis of international frameworks for 21st century competences: Implications for national curriculum policies. *Journal of Curriculum Studies*, 44(3), 299–321.
10. Xo'jayev, A. (2022). Oliy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi. *Ta'lim va taraqqiyot*, 4(3), 45–52.
11. Ziyayeva, N. (2020). Boshlang'ich ta'limda interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi. *Ta'lim jarayoni va innovatsiyalar*, 2(1), 55–61.